

Oriental Journal of Education



DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING THROUGH INDEPENDENT LEARNING

Mokhichekhra Bekmurzayevna Islamova

PhD Candidate

Navoi State University

Email: islamova.moxichehra@gmail.com

Navoi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: critical thinking, independent thinking, project technology, creative thinking, intellectual perseverance, intellectual humility, technology, critique, cognition.

Received: 27.11.25

Accepted: 28.11.25

Published: 29.11.25

Abstract: This article focuses on the development of students' critical thinking skills through independent learning. The paper presents the content, essence, and examples of independent learning assignments aimed at developing all components of critical thinking competence within the framework of the discipline "Creative Pedagogy" during extracurricular activities. Our research has shown that independent assignments provide opportunities to assess students' personal qualities necessary for the development of critical thinking competencies, as well as to draw conclusions and make judgments. In addition, it is emphasized that the assignments offered to students should serve as effective methods, technologies, and project-based tools that contribute to the development of critical thinking. In our view, the proper organization of independent learning significantly enhances students' critical thinking, reflective skills, and creativity.

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLIISHI ORQALI TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Moxichexra Bekmurzayevna Islamova

NavDU tayanch doktoranti

Email: islamova.moxichehra@gmail.com

Navoiy, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, mustaqil fikrlash, loyiha texnologiyasi, kreativ fikrlash,

Annotatsiya: Ushbu maqola talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustaqil ta'lim

intelektual qat'iylik, intellektual kamtarlik, texnologiya, tanqid, tafakkur.

olish orqali rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan. Mazkur maqola talabalarning auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda Kreativ pedagogika fani doirasida tanqidiy fikrlash kompetensiyasining barcha komponentlarini rivojlantirish uchun mustaqil ta'lim topshiriqlarining mazmuni, mohiyati va na'munasi keltirilgan. Izlanishlarimizda shu narsa ma'lum bo'ldiki, mustaqil topshiriqlar talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy sifatlarini baholash, xulosalash imkoniyatini berdi. Shuningdek, ularga taqdim etilgan topshiriqlar tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar, texnologiyalar, loyihalardan biri bo'lishi lozimligi keltiriladi. Nazarimizda, mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish talabalarda tanqidiy fikrlashni, refleksiv ko'nikmalarni, kreativlikni sezilarli darajada rivojlantiradi.

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ

Мохихебра Бекмурзаевна Исламова

Тайный докторант

Навоийский государственный университет

Email: islamova.moxichehra@gmail.com

Навоий, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: критическое мышление, самостоятельное мышление, проектная технология, креативное мышление, интеллектуальная стойкость, интеллектуальная скромность, технология, критика, мышление.

Аннотация: Данная статья посвящена проблеме развития критического мышления студентов посредством организации самостоятельного обучения. В статье представлены содержание, сущность и примеры самостоятельных учебных заданий, направленных на развитие всех компонентов критического мышления в рамках дисциплины «Креативная педагогика» в ходе внеаудиторных занятий. Наши исследования показали, что самостоятельные задания позволяют оценить личностные качества студентов, необходимые для формирования компетенций критического мышления, а также помогают делать выводы и обобщения. Кроме того, подчёркивается, что предлагаемые студентам задания должны являться одним из эффективных методов, технологий и проектов, способствующих развитию критического мышления. По нашему мнению, правильная организация

самостоятельного обучения значительно развивает у студентов критическое мышление, рефлексивные навыки и креативность.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz barcha sohalarda tub o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, ta'lim sohasida ham izchil islohotlar amalga oshirish, uni dunyo reytinglarida yuqori darajaga ko'tarish eng asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Talabalarga tayyor bilimlarni passiv holda qabul qilishi emas, balki, ularning mustaqil, ijodiy, kongnitiv faoliyatini rivojlantirish orqali ularning tanqidiy tafakkurini, fikrlashlarini o'stirishning imkoniyatlarini e'tiborga olishni taqozo etmoqda. Bu borada mamlakatimiz ta'lim-tarbiya sohasida bir qancha islohotlar amalga oshirilyapti. Buning yaqqol misoli sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.02.2019 yildagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4199-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ4884-son Qarorlari ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun xizmat qilayotganini ko'rishimiz mumkin.[1]

Olimlarning fikriga ko'ra, agar ta'lim oluvchilar ta'lim dasturlarining asosiy qismini muvaffaqiyatli o'zlashtirib, bilimlarini tanish vaziyatlarda qo'llashni o'rgansalarda, axborot bilan ishlash, mustaqil bajarish va yangi bilimlarni o'zlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lmasalar, ular bugungi axborotlashgan, global jamiyatda muvaffaqiyatga erisha olmaydilar.

Bugungi kunda oliy ta'lim bitiruvchilari kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat olib borishlar, yutuk kadrlar bo'lib yetishishlari uchun ularga bir qancha talablar qo'yiladi. Ular quyidagi sifatlarga va kompetensiyalarga ega bo'lishlari zarur:[6]

O'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan bo'lishi- ya'ni, kerakli bilimlarni mustaqil ravishda egallashi va ularni turlicha muammolarni yechishda samarali qo'llay olishi;

Mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lishi- real hayotda uchraydigan muammolarni ko'ra olish, ularning oqilona yechimlarini izlash, zamonaviy texnologiyalar yordamida yechim ishlab chiqish hamda o'z bilimlarini qayerda va qanday vaziyatlarda qo'llash mumkinligini anglash, yangi g'oyalar yaratish, ijodkorlik bilan yondashish;

Axborot bilan samarali ishlash – ma'lumotlarni tahlil qilish, muammoni yechish bo'yicha gepotezalarni ilgari surish, kerakli umumlashtirishlarni amalga oshirish, boshqa alternative qarashlar bilan taqqoslash, asosli xulosalar chiqarish va ular asosida yangi muammolarni aniqlash hamda hal eta olish;

Turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot qila olish- jamoada ishlash, hamkorlikda faoliyat yuritish va nizoli vaziyatning oldini olish;

Shaxsiy axloqiy intellektual va madaniy darajasini mustaqil rivojlantirish;

O'z-o'zini takomillashtirish uchun ehtiyoj sezish- reflektiv tahlil qilish va o'z faoliyatini mustaqil baholay bilish;

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Talablarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati maktab va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun eng muhim talablardan biri sifatida qaraladi. Pedagogika fanlarini o'qitishda barcha bosqich talablarining mustaqil ish ko'nikmalarini rivojlantirish muammosini ko'pgina olimlar (Devey,1997; 2009; Vygotsky, Kole,1978; Halperin,2012; Zimnyaya,2003; Kapterev,1877; Komensky, 1875; Leontiev,2000; Pidkasisty,1972; Rubinshtein,2000, Ushinsky, 1975) takidlashadi.

Mustaqil ta'limdagi muhim rag'batlantiruvchi omil- bu talabalarning o'z qiziqishlarini qo'llab –quvvatlash va o'rganishga bo'lgan istagini kuchaytirishdir. O'qitish mazmuniga tayangan va foydali bo'lganda, ko'zlangan maqsadga erishish vositasi taqdim etilganda, talabalar o'qishga ko'proq motivatsiya bilan yondashadilar. Bunday o'quv faoliyati refleksiv izlanish va doimiy intellektual rivojlanishga turtki beradi.

Aksincha, talabaning qiziqishi bo'lmagan o'quv faoliyatlari tashqi motivatsiyaga va tashqai mukofotlarga qaramlikning ortishiga olib keladi. Bunday yondashuv talabaning tashabbusini susaytiradi, uni o'zi uchun o'rganishga undash o'rniga, faqat tashqi sabablar tufayli ishtirok etishga majbur qiladi. Mustaqil ta'lim olish mas'uliyatli qaror qabul qilish bilan bevosita bog'liqdir, chunki, shaxsdan muammolarni tahlil qilish, o'z ishini aks ettirish (refleksiya qilish), qaror qabul qilish va maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshirish talab etiladi. Bu rivojlangan jamiyatda hayotga mas'uliyat bilan yondasha olishi uchun talabalar “umr bo'yi” o'rganishlari zarur. Kundalik hayotimizning aksariyat jihatlari chuqur o'zgarishlarga yuz tutayotganini inobatga olsak, mustaqil ta'lim ularga mehnat, oila, jamiyatning o'zgarib borayotgan talablari uchun moslashuvchan javob qaytarish imkonini beradi.

O'qituvchilar talablarga o'z o'qish jarayonining har bir bosqichi uchun javobgarlikni olishni o'rgatishlari kerak, bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Maqsadlarni belgilash;

Bunday maqsadlarga erishish strategiyalarini aniqlash va ishlab chiqish;

O'qish(ta'lim) rejalarini tuzish;

O'qishni (o'rganishni) refleksiya qilish (bu muammoli sohalarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashni ham o'z ichiga oladi)

Tegishli manbalarni aniqlash hamda tanlash;

O'z yutuqlarini baholash (bu o'qish natijalarini baholash mezonlarini belgilashni ham o'z ichiga oladi)

Talabalarning ijodiy kongnitiv faoliyatini, ularning tahlil qilish va gepoteza ilgari surish muammolari qo'yish, ularni mustaqil hal qilish qobiliyatlarini kuchaytirishga yo'naltirilgan yo'llardan biri- bu o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Ushbu muammo pedagogik va psixologik nuqtai nazardan ko'rib chiqib, uni talabalarning mustaqil ish ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida baholagan bir qancha olimlar (L.Elder, V.Paul, J.Braus, D.Vood, D.Halpern, D.Kluster, D.Dvey) ish olib borgan.[12]

Amerikalik psixolog Richard, L.Elder va V.Paul tanqidiy fikrlash tushunchasini muayyan fikrlash usuli yoki sohasiga mos ravishda fikrni takomillashtiruvchi, tartibli va o'z-o'zini boshqaruvchi fikrlash sifatida izohlaydi.[12] Ularning fikricha, tanqidiy refleksiya jarayonida biz fikrlash elementlarini boshqarish orqali o'z fikrlashimizni tegishli fikr turi yoki mantiqiy talablariga moslashtiramiz. Agar inson tanqidiy fikrlashga "kuchli ma'noda", ya'ni boshqalar manfaatlarini ham hisobga olgan holda odatlanib qolsa, unda quyidagi intellektual sifatlar rivojlanadi:

- Intellektual kamtarlik
- Intellektual jasorat
- Intellektual qat'iyat
- Intellektual halollik,
- Mantiqqa ishonish.

J.A.Braus va D.Vood (1993) tanqidiy fikrlashni aniq muammolarni hal etishga qaratilgan, aqlli va reflektiv fikrlash deb ta'riflaydi. Ularning fikricha, tanqidiy fikrlash – bu sog'lom fikr yuritishning izlanishi, ya'ni voqealarga ob'yektiv baho berish, mantiqan harakat qilish, bunda faqat o'z qarashlarini emas, balki, boshqalarning fikrlarini ham inobatga olish, kerak bo'lganda o'z e'tiqodlaridan voz kecha olish qobiliyatidir.

D.Halpern(2000) esa tanqidiy fikrlashni shunday ta'riflaydi, bu – kerakli natijaga erishish ehtimolini oshiradigan kongnitiv ko'nikmalar va strategiyalarni qo'llash bo'lib, bunda biz o'z fikrlash jarayoni natijasini baholaymiz- ya'ni, qabul qilingan qaror qanchalik to'g'ri bo'lganini yoki vazifani qanchalik muvaffaqiyatli bajarganimizni aniqlaymiz. Uning fikricha, tanqidiy fikrlash xulosa chiqarishga olib keladigan fikrlash zanjirini tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun Halpern ba'zida tanqidiy fikrlashni "yo'naltirilgan fikrlash" deb ham ataydi, chunki, muayyan maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi deya ta'kidlaydi. [13]

D.Kluster (2001)tanqidiy fikrlashni yodlash, tushunish va ijodiy intuitive fikrlash kabi jarayonlari bilan taqqoslashning imkonsizligini ta'kidlaydi. Xotirani rivojlantirish muhim, biroq shu bilan birga yodlash fikrlash degani emas, intellektning rivojlanishi xotira amaliyoti bilan emas, balki mustaqil fikrlashning asosiy shartlaridan biri deb hisoblaydi. D.Kluster fikricha, tanqidiy fikrlashni

riivojlantirishning asosiy shartlaridan biri shaxsning asosiy shartlaridan biri shaxsning mustaqil fikrlash ko'nikmalariniga ega bo'lishdir - deb hisoblaydi.[9] U tanqidiy fikrlashning 5 ta xususiyatini ajratib ko'rsatadi, ular quyidagilardir:

Birinchidan, tanqidiy fikrlash - bu mustaqil fikrlashdir. Bunday fikrlash doirasida har kim boshqalardan qat'i nazar o'z g'oyalari, baholari va e'tiqodlarini shakllantiradi. Hech kim bizning o'rnimizga tanqidiy fikrlay olmaydi, biz buni faqat o'zimiz uchun qilamiz. Shunday ekan, fikrlash faqat shaxsiy xususiyatga ega bo'lgandagina tanqidiy bo'la oladi. O'quvchilar o'zlari mustaqil fikrlashi va murakkab muammolarni mustaqil hal qilishi kerak. Demak, mustaqillik - tanqidiy fikrlashning birinchi va, ehtimol, eng muhim xususiyatidir.

Ikkinchidan, axborot tanqidiy fikrlashning boshlanishi, ammo yakuniy nuqtasi emas. Murakkab g'oya yaratish uchun ko'p materialning orasidan faktlar, g'oyalar, matnlar, mavjud nazariyalar, tushunchalarni ajratib, qayta ishlash zarur.

Uchinchidan, tanqidiy fikrlash muammoni qo'yishdan boshlanadi; uni asoslash, dalillash, yechimi, shu jumladan qaror qabul qilishni o'z ichiga oladi. Hammamiz bilamizki, inson tabiatan juda qiziquvchan va doimo "yangilik"ni bilishga intiladi. Qiziquvchanlik - barcha hayotning ajralmas xususiyatidir.

To'rtinchidan, tanqidiy fikrlash ishonitiruvchi dalilga, kuchga intiladi. Tanqidiy fikrlaydigan inson o'z muammosining yechimini topadi va uni oqilona, puxta dalillar bilan qo'llab-quvvatlaydi. U, shuningdek, ushbu muammoning boshqa yechimlari ham mumkinligini tushunadi va tanlagan yechimi boshqalarnikidan ko'ra mantiqiyroq, maqbulroq ekanini isbotlashga harakat qiladi. Har qanday dalil uchta asosiy elementdan iborat bo'ladi. Dalilning asosiy elementi - bayonotdir. Bayonot bir qator dalillar bilan qo'llab-quvvatlanadi. Har bir dalil, o'z navbatida, isbotlar bilan mustahkamlanadi. Biz matndan iqtiboslar, shaxsiy tajriba va dalil sifatida qo'llanadigan boshqa hamma narsadan foydalanishimiz mumkin. Kuchli dalillar bilan qurollangan tanqidiy fikrlovchi shaxs ko'pchilik fikriga qarshi turishga qodirdir.

Beshinchidan, tanqidiy fikrlash - bu ijtimoiy fikrlashdir. Biz boshqalar bilan munozara qilganimizda, o'qiganimizda, muhokama qilganimizda, e'tiroz bildirganimizda, fikr almashganimizda, o'z pozitsiyamizni aniqlashtiramiz va chuqurlashtiramiz.

Amerikalik faylasuf va psixolog J. Dewey (2009) tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni mazmunli va maqsadga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida qaror qabul qilishni talab qiladigan murakkab faoliyat deb hisoblagan. U bu jarayonni "reflektiv fikrlash" deb atagan va quyidagicha ta'riflagan: e'tiqod yoki bilimning taxminiy shaklini uni qo'llab-quvvatlovchi mulohazalar hamda undan kelib chiqadigan keyingi xulosalar nuqtayi nazaridan faol, izchil va ehtiyotkorona ko'rib chiqish. [11]

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tadqiqotchilar "tanqidiy fikrlash" tushunchasini aniqlashda yagona yondashuvga ega emas. Biroq ularning aksariyati tanqidiy fikrlashni individual fikrlash sifatida talqin qiladi. Bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, tanqidiy fikrlash - bu yangi g'oyalar va muammolarni yaratish hamda hal etish maqsadida axborotni qayta ishlash, tahlil qilish va baholashga qaratilgan individual fikrlashdir. Tanqidiy fikrlash atrof-muhitga doimiy tanqidiy munosabatda bo'lish, axborotni obyektiv yo'l bilan olish usullarini topish va baholash, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash, tahlil qilish, jamiyatdagi qarashlarning murakkabligi va ziddiyatlarini anglashni bildiradi. Boshqacha aytganda, tanqidiy fikrlovchi shaxs muammolarni mustaqil hal qila olishi va qabul qilingan qarorlarini asosli dalillar bilan qo'llab-quvvatlay olishi kerak.

Tanqidiy fikrlashning asosiy ko'rsatkichi- uning samaradorligi va mustaqilligi. Samarali fikrlash esa shaxsning mantiqan va izchil fikr yuritish qobiliyati, muammolarni tez va ijodkorona hal qilish, to'g'ri taqqoslashlar qilish, asosli xulosalar chiqarish va qaror qabul qilishga qodirligini bildiradi. Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlash o'quvchilarning mustaqil ishlari jarayonida muammolarni qo'yish va ularni yechish davomida ularning analitik, baholovchi va refleksiv ko'nikmalari, shuningdek mantiqan mulohaza qilish, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish va ifoda etish qobiliyatlari hisobiga rivojlanadi.

Talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni mustaqil o'rganuvchiga aylantirish - zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir. Talabalarning mustaqil ishlari doirasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish "jamoalash yondashuvi"dan foydalanish orqali shakllantiriladi, degan qarash mavjud. Jamoa bu o'zaro almashtiriluvchanlik ko'nikmalariga ega bo'lgan, umumiy maqsadni amalga oshirish uchun birgalikda ishlaydigan va uning bajarilishi uchun bir-biriga nisbatan mas'uliyat oladigan kichik guruhdir. Jamoada ishlash umumiy maqsad va vazifalarga erishishda olib boriladigan faol jamoaviy ish jarayonidir (Levin, 2002; Reynolds, 1994).[18] Guruhda ishlash yangi g'oyalar ishlab chiqish jarayonini rag'batlantiradi. Amaliyotda shu narsa ma'lumki, o'rtacha qobiliyatga ega bo'lgan shaxs guruhda ishlaganda muammolarni hal etish qobiliyatini ikki baravar oshirishi mumkin. Guruhda ishlash davomida u muammo yechimini ko'plab yo'llar orqali topish imkoniga ega bo'ladi, bir tomondan esa bir kishining fikri boshqalar uchun yangi g'oyalar tug'ilishiga turtki bo'ladi. Bundan tashqari, guruh ishida ishtirokchilar o'rtasida raqobat hissi shakllanadi. Raqobat tanqidiy yoki dushmanga xos munosabatni keltirib chiqarmagan taqdirda, u ijodiy jarayonning kuchayishiga xizmat qiladi, chunki har bir ishtirokchi yangi g'oyalarni ilgari surishda boshqasidan o'zib ketishga intiladi.

Shunday qilib, jamoa asosida ishlash tanqidiy fikrlovchilar va mustaqil o'rganuvchilarni tayyorlashning samarali vositalaridan biridir. U quyidagi sifatlarni rivojlantirish imkonini beradi: mustaqillik, qiziquvchanlik, mustaqil baholash qobiliyati.

Tahlil va natijalar. “Jamoa yondashuvi”ning talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni mustaqil o‘rganuvchilarga aylantirishga yo‘naltirilgan turlaridan biri loyiha texnologiyasidir. Kreativ pedagogika fanini o‘qitishda loyiha texnologiyasi orqali mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishi talabalarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantiradi. Loyiha texnologiyasi xalqaro ta’lim tizimida keng tarqalgan bo‘lib, o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni va tamoyillari bilan uyg‘unlashadi; uning o‘ziga xos jihatlari mustaqil ish hamda talabalarning ijodiy-kognitiv salohiyatini rivojlantirishdir. Loyiha texnologiyasi tadqiqotning maqsadi va unga erishish yo‘llari o‘quvchilarning qiziqishlari, individual xususiyatlari, ehtiyojlari, motivlari va qobiliyatlari asosida o‘quvchilar tomonidan belgilanadi. Shuning uchun shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish loyihaviy texnologiyaning asosi - an’anaviy o‘qituvchi–o‘quvchi (subyekt–obyekt) munosabatlarini o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi teng huquqli subyekt–subyekt hamkorlik sxemasiga o‘zgartirishni nazarda tutadi.

Loyiha texnologiyasi o‘quvchilarga o‘z kognitiv (bilish) faoliyatlarini faollashtirish imkonini beradi, chunki ular mazkur faoliyatning subyektlari sifatida ishtirok etib, shaxsiy salohiyatlarini ro‘yobga chiqaradilar. Bu texnologiya o‘quvchining ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi hamda ta’lim jarayonining samaradorligi va natijadorligini ta’minlaydi. Mazkur texnologiya g‘oyasi - ta’lim jarayonida kichik guruhlarda o‘zaro hamkorlik (kooperativ ta’lim)ni yo‘lga qo‘yishdir. Bu sharoitda o‘quvchilar ta’limiy muammolarni hal qilish uchun jamoaviy mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladilar va har bir ishtirokchining muvaffaqiyati uchun bir-biriga yordam berishni boshlaydilar.

Loyihaviy texnologiya doirasida jamoaviy mas’uliyatni aktual (faol) holatga keltirish o‘quvchilarda mustaqillik va ijtimoiy faollik, ta’lim guruhida hamkorlik qilish qobiliyati, shuningdek o‘ziga ham, o‘quv guruhiga ham mas’uliyatni zimmasiga olish kabi sifatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa shaxsning ijtimoiylashuvi va o‘quvchining tadbirkorlik faolligini shakllantirish imkonini yaratadi. Loyiha texnologiyasi ma’lum bir muammoni hal etishni nazarda tutadi; bir tomondan turli usul va texnologiyalardan foydalanishni, boshqa tomondan esa turli fan sohalaridan bilim va ko‘nikmalar integratsiyasini talab qiladi. Amalga oshirilgan loyihalarning natijalari real xarakterga ega bo‘lishi kerak: agar muammo nazariy bo‘lsa- uning aniq yechimi, amaliy bo‘lsa - amalga joriy etishga tayyor aniq natija bo‘lishi lozim.

Loyihaviy ishlarni bajarish jarayonida hamkorlik, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan qator sifatlar shakllanadi. Bular - mustaqil va tanqidiy qaror qabul qilish, empatiya qilish qobiliyati, muammoni hal qilish faoliyatiga qiziqish, umumiy qiziquvchanlik, yangi ma’lumotni qabul qilishga ochiqlik, voqealarga yangicha nigoh bilan qarash, mustaqillik, yangi g‘oyalarga ochiqlik, har qanday vaziyatga ijobiy va optimistik munosabatda bo‘lish, shuningdek, refleksiv o‘z-o‘zini baholash qobiliyatlaridir.

Loyiha texnologiyasining asosiy xususiyati - u aniq natija, ya'ni loyiha faoliyatining yakuniy mahsuliga yo'naltirilganidir. Talabalar loyiha vazifalarini bajarish jarayonida fandagi yangi bilim va madaniyat unsurlarini egallaydilar; bu jarayon ularning tadqiqotchilik faoliyati uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, loyiha ishini samarali tashkil etish uchun o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqning barcha ko'rinishlarida yetarli kommunikativ til ko'nikmalari shakllangan bo'lishi zarur.

Xulosa va takliflar. Loyiha uchun mavzu va dolzarb muammoni tanlash kreativ pedagogika fanini o'rganishning istalgan bosqichida cheklanmaydi - bu esa fanni o'qitishda loyihaviy texnologiyaning eng katta afzalliklaridan biridir. O'qituvchi ta'lim dasturi doirasida o'quvchilarga o'z qiziqishlariga mos masalalarni tanlash imkonini beradi, bu esa ularni shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan loyiha faoliyatiga faol jalb etadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalar mustaqil ishlarini to'g'ri va sifatli tashkil etish ularning reflektiv va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga sezilarli darajada oshishiga yordam beradi. Bunda o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan bilimlarni ongli idrok etish, mazmunini tushunish va anglash jarayoni muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan shtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-yil 14-yanvar. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 April 2023 / Volume 4 Issue 4 www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 847
2. Avliyakov N. X., Musaeva N.N. "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA" Oliy o'quv yurtlari uchun darslik «Tafakkur Bo'stoni», 2012. Cho'lpon NMIU, 2012. N.X.Avliyakov, N.N.Musaeva, 2012.
3. Jabborov A.M. Pedagogik texnologiyaning etnik asoslari. – T.: "Zarqalam", 2006. – 48 b.;
4. Zagashov I. O., Zair-Bek S. I. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi. - Sankt-Peterburg: "Alyans" Delta "nashriyot uyi, 2003.- 284 b.
5. Zagashov I.O., "Savol berish qobiliyati". - Sankt-Peterburg: "Alyans" Delta "nashriyot uyi, 2005 yil.
6. Latipova U.Y. Talaba shaxsida ijodiy faollikni shakllanishi ta'limga yangicha yondoshuvning asosi sifatida // O'quv tarbiya jarayonlarini takomillashtirishning milliy psixologik asoslari. Qarshi 18-19 aprel 2019. – B. 246-247.

7. Mushtavinskaya I.V. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi: ilmiy va uslubiy aks ettirish: [Xalqaro loyiha doirasida Sankt-Peterburg shahridagi 177-sonli gimnaziya tajribasidan]
8. M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. -T., “Aloqachi”, 2008, 304 bet
- 9.Cluster, D. (2001). Tanqidiy fikrlash nima? Change: Intercultural. O‘qish va yozish orqali tafakkurni rivojlantirish jurnali, 4, 36–40.
- 10.Dewey, J. (1997). Fikrlashning psixologiyasi va pedagogikasi. Qanday fikrlaymiz. (Ingliz tilidan N.M. Nikolskaya tarjimasi). Moskva: Sovershenstvo.
- 11.Dewey, J. (2009). How We Think (Qanday fikrlaymiz). 20 may, 2009.
- 12.Elder, L. & Paul, R. (2008). Tanqidiy fikrlashni aniqlash: Critical Thinking Jamg‘armasi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish: <http://www.criticalthinking.org/pages/defining-critical-thinking/766>
- 13.Galperin, P.Y. (2012). Inson psixikasining ontogenez muammosi. Milliy Psixologik Jurnal, 2(8), 9–13.
- 14.Halpern, D. (2000). Tanqidiy fikrlash psixologiyasi. Sankt-Peterburg: Piter.
- 15.Kapterev, P.F. (1877). Maktab o‘qituvchilari, tarbiyachilar va murabbiylar uchun ta’lim psixologiyasi. A.M. Kotomin nashriyoti.
- 16.Komensky, Y.A. (1875). Buyuk didaktika. Sankt-Peterburg: Peter.
- 17.Leontiev, A.N. (2000). Umumiy psixologiya bo‘yicha ma’ruzalar. Moskva: Smysl.
- 18.Levin, P. (2002). Jamoada ishlash bo‘yicha tutorlash: Talabalarga guruh loyihalarida jamoaviy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ko‘maklashish. To‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish: http://www.teamwork.ac.uk/MGS_teamwork_tutoring.PDF
- 19.Pidkasisty, P.I. (1972). Talabalarning mustaqil ishi: jarayon va ijod tuzilmasining didaktik tahlili. Moskva: Pedagogika.
- 20.Polat, E.S. (2002). Ta’lim tizimidagi yangi pedagogik va axborot texnologiyalari: pedagogika universitetlari talabalari va o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimi uchun qo‘llanma. Moskva: Akademiya.
- 21.Reynolds, M. (1994). Ta’lim va treningda guruh bilan ishlash. London: Kogan Page.
- 22.Rubinshtein, S. (2000). Umumiy psixologiya asoslari. Sankt-Peterburg: Piter.
- 23.Schlechty, P.C. (1990). XXI asr uchun maktab: ta’lim islohoti ustuvor yo‘nalishlari. San-Fransisko: Jossey-Bass.
- 24.Zimnyaya, I.A. (2003). Kalit kompetensiyalar — ta’lim natijasining yangi paradigmasi. Bugungi oliy ta’lim, 5, 34–45.